

**O’QUVCHILARNING ESSE YOZISH KO’NIKMALARINI  
TAKOMILLASHTIRISH BO’YICHA AYRIM MULOHAZALAR**

*1-bosqich magistranti: X.Rabbimova*

*Ilmiy rahbar: dots. I.Yoqubov*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o’quvchilarning esse yozish ko’nikmalarini o’stirishga doir topshiriqlar haqida ma’lumot berilgan. Tizimli esse yozishga oid tavsiyalar, usullar hamda o’rtaga tashlangan muammolarning yechimlari haqida so‘z borgan. O’quvchilarning yozma nutqini shakllantiruvchi vositalar keltirib o’tilgan.

**Kalit so‘zlar:** yozma nutq, esse, metod, tezis, argument, dalil, tahlil, uslub, tavsiya, topshiriq

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о заданиях для совершенствования навыков написания эссе у учащихся. Говорили о рекомендациях, методах и решениях поднятых проблем для написания систематического эссе. Упоминаются средства формирования письменной речи студентов.

**Ключевые слова:** письменная речь, эссе, метод, тезис, аргумент, доказательство, анализ, метод, рекомендация, задание.

Hozirda maktab ta’lim tizimida o’quvchilarning yozma nutqini o’stirishga va uni rivojlantirishga xizmat qilayotgan yozma ish janrlaridan keng tarqalayotgani esse bo‘lib, uni o‘qitish, o‘rgatish va tushuntirish ba’zi o‘qituvchilar uchun ko‘plab qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda. Bu borada olib borilayotgan ishlar ichida eng muhimi avvalo, o‘qituvchilarni ushbu dolzarb muammo bo‘yicha o‘qitish va ularga bosqichma-bosqich esseni tushuntirishdir. Shu maqsadda o‘qituvchilarga o’quvchilarning yozma nutqini o‘sishiga yordam beradigan turli topshiriqlar berish, qadamma-qadam esse yozishni o‘rgatishga doir mashqlarni bajartirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu masala yuzasidan o’quvchilarning esse yozish qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslangan quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

**1. G‘oya topish va uni rejaliashtirishga oid topshiriqlar ishlab chiqish.**

Bundan ko‘zlangan maqsad ma’lum bir mavzu doirasida fikr yuritishni kengaytirish hamda matnga munosib rejalar ishlab chiqish ko’nikmasini shakllantirishdir. Buni rivojlantirish uchun quyidagi topshiriqlarni misol qilib keltirish mumkin.

—“Tezkor hujum” metodi – o’quvchilarga turli mavzular berish hamda unga tegishli bo‘lgan fikrlarni yozishini talab qilish;

– Yozilgan fikrlarni o‘qib, mavzuga oidlarini saralash, mavzudan chetlashilganlarni olib tashlash;

–Klaster usulini qo‘llash orqali mavzu atrofida g‘oyalarni birlashtirish;

–Matnga qarama-qarshi bo‘lgan fikrlarni solishtirib, taqqoslab ko‘rish. Misol uchun, davlat universitetlari va xususiy universitetlar.

## **2. Esse qismlari va ularni birlashtirishga asoslangan topshiriqlar.**

Ya’ni, ushbu topshiriqlar orqali o‘quvchilar matn qismlarini to‘g‘ri tartiblashtirishni va har bir qism o‘zaro yaxlit mazmunni tashishini o‘rganadilar. Masalan:

–Qismlarga ajratish – ushbu topshiriq orqali o‘quvchilar oldindan tayyorlangan kirish, asosiy qism va xulosani o‘qituvchi tomonidan berilgan matn orqali qayta to‘ldirishga harakat qiladi. Bu bilan matn qismlarni to‘g‘ri joylashtirishni, esse yozishda uning qismlarini yoritishga to‘liq rioya qilishni o‘rganishadi.

–“O‘yla, izla, top!” metodi orqali ma’lum bir matnga oid turli qog‘ozlarda esse qismlariga tegishli bo‘lgan tezis, argument, hayotiy dalillarni birlashtirish va mazmunini chiqarishni topshiriq qilib berish orqali ularning qo‘llash qobiliyatlari yanada rivojlanadi.

–Esse tarkibida har bir qism alohida ahamiyatga ega bo‘lganidek, xulosa qismi ham muhim hisoblanadi. O‘quvchilarda xulosa yozishni shakllantirish uchun ularga tayyor holatda matn berish hamda o‘scha matn asosida xulosani yoritishini so‘rash mumkin.

## **3. Esse yozishda o‘quvchilarga beriladigan en muhim tavsiyalar:**

–Takrorlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun sinonimlardan unumli foydalanish;

–Mavzuga aloqador bo‘lgan maqol, hikmatli so‘z va iqtiboslarni qo‘llash;

–Mujmal, matnni oolib berolmaydigan jumlalardan foydalanmaslik;

–Eng asosiysi, publitsistik uslubga tayangan holda yozish;

## **4. Tahrir va tahlil qilishda nimalarga e’tibor berish kerak.**

Yozilgan essen ni o‘qib chiqish, undagi imloviy, ishoraviy, uslubiy xatolarga e’tibor qaratish. Matnning ma’nosи va mazmunini tahlil qilish, keraksiz so‘zlardan qochish. Bu orqali o‘quvchilar o‘zлari yozgan matnni mustaqil holda tekshirishni va tartibga keltirishni o‘rganadilar. Bu borada o‘quvchilarga o‘z essesini tahlil qilishni va tekshirib baholashni topshiriq qilib bersa bo‘ladi. Tahlil qilishda qiyinchiliklarga duch kelmasligi uchun o‘qituvchi sinf yoshiga mos matnning tahlil qilish kreteriyalarini ishlab chiqqani maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, esse publitsistik uslubga xos yozma ish turi hisoblanadi. Shu sababli uni yozishda nafaqat o‘quvchilar balki, ba’zi o‘qituvchilar ham ko‘plab muammolarga

duch kelayotgani yuqorida qayd etildi. Shu boisdan, eng avval, o‘quvchilarga nutq uslublarini kengroq o‘rgatish va amalda mashq, topshiriqlar berib sinab ko‘rish, albatta, foyda beradi. Quyidagi topshiriqlarni namuna sifatida keltirish mumkin.

### **1-topshiriq**

#### **“Agar men bir kunlik... bo‘lsam”**

**Topshiriq:** O‘quvchilardan bir kunlik hayvon, o‘simlik, mashina yoki har qanday narsa bo‘lishni tasavvur qilishlarini so‘rang.

#### **Savollar:**

–Nima uchun aynan bu narsani tanladingiz?

–Kuningiz qanday o‘tardi?

–Qanday qiziqarli voqealar sodir bo‘ldi?

**Misol:** “Agar men bir kunlik daraxt bo‘lsam, men osmonni ko‘tarib turar, quyosh nurida yonar va qushlarning qo‘shig‘ini tinglar edim...”

(Ushbu topshiriq o‘quvchilarning tasavvur dunyosini kengaytirib, ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Topshiriq barcha sinflarga tavsiya qilinadi)

### **2-topshiriq**

#### **“Birinchi va oxirgi jumla tayyor, o‘rtasini o‘zing to‘ldir!” o‘yini**

(O‘quvchilarga birinchi va oxirgi jumla beriladi, ular esa o‘rtasini o‘z fikrlari bilan yozadilar.)

#### **Masalan:**

**Birinchi jumla:** “Men ko‘zlarimni ochganimda, atrof butunlay o‘zgargan edi...”

**Oxirgi jumla:** “Bu kunni hech qachon unutmayman.”

(Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilar hayoliy matn yozish ko‘nikmasini o‘stirishadi. Shu bilan birga, har qanday mavzuda shaxsiy fikrlarini bayon qila olish ko‘nikmasini rivojlantiradi.)

### **3-topshiriq**



#### **Rasmga qarab esse yozish**

O‘quvchilarga turli mavzudagi rasmlar beriladi va ular shu rasm asosida esse yozadilar. O‘rganilayotgan sohada uslubiy manbalarning kamligini hisobga olib, yozma ishlarni tashkil etish texnikasi haqida gapirganda, matn tuzishning samarali

usullari bilan bir qatorda o‘qish va tushunish usullarini ham aytib o‘tish maqsadga muvofiqdir. [K. A. Nehmetova, 2020y 22 b.] O‘qish va tushunishning uslubiy usullaridan biri bu “TASA” usulidir. Bu usul “Tezis-analiz-sintez” kalit so‘zlarining qisqartmasi bo‘lib, u matnning turli qismlari bo‘yicha mustaqil fikr yuritish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, esse o‘quvchining aniq mavzu yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalari asosida yoziladigan ixcham ijodiy ish hisoblanadi. [D.Obidova, 2022y 2 b.] Shu sababdan, esse bo‘yicha o‘quvchilarga topshiriq berilarkan ko‘proq ijodiy yondashishga va shaxsiy fikr ustunroq bo‘lishiga ahamiyat bermoq lozim. Shuningdek, esse yozish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim ko‘nikmalardan biri sifatida o‘quvchining quyida bilim va ko‘nikmalarini o’stirishda xizmat qiladi:

- O‘quvchilar mavzuni chuqur tahlil qilishni va turli nuqtai nazarlarni solishtirishni o‘rganadilar;
- Esse yozish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini mantiqiy tartibda va ravon bayon qilish ko‘nikmasini oshiradilar;
- O‘quvchilar grammatika, uslub va mantiqiy izchillikka e’tibor qaratib, yozuv madaniyatini shakllantiradilar;
- O‘quvchilar o‘ziga xos yondashuv va ijodiy g‘oyalar orqali mavzuni keng yoritish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;
- Yangi so‘zlar, iboralar va akademik uslubda yozish usullarini o‘rganish imkoniyati tug‘iladi;
- Esse yozish jarayonida o‘quvchilar qo‘srimcha manbalar bilan ishlashni va aniq ma’lumotlarga asoslanishni o‘rganadilar;
- O‘quvchilar o‘z fikrlarini asoslab berish va dalillar orqali himoya qilishni o‘rganadilar;

Umuman olganda, esse yozish o‘quvchilarning nafaqat akademik, balki kundalik hayotdagi muloqot va fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi;

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Konul Aydin Nehmetova, Yazi isinin teşkili metodikası, Baki - 2020, 98 b.
2. D.Obidova, Esse yozish qoidalari va tavsiyalar haqida metodik tavsiya, O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 14-son, 2022-y, 439-446-b.
3. Yoqubov, I. (2025). O ‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI GAP BO’LAKLARINING QIYOSIY TAVSIFI. FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities., 13(2), 9-14.
4. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=3bpt6QUAAAAJ&citation\\_for\\_view=3bpt6QUAAAAJ:vbGhcppDl1QC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=3bpt6QUAAAAJ&citation_for_view=3bpt6QUAAAAJ:vbGhcppDl1QC)